Moliyaviy risklarning asosiy turlaridan biri bozor riski hisoblanadi. Bu risk moliyaviy aktivlar narxlarining o'zgarishi, foiz stavkalari va boshqa bozor omillari ta'sirida yuzaga keladi. Bozor risklarini baholash sohasida Blek va Shoulz (1973), shuningdek Merton (1974) tomonidan ishlab chiqilgan opsionlarni baholash modeli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ushbu model bozor risklarini aniqlash va tahlil qilishda yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirdi. Shu bilan birga, kredit riski ham moliyaviy risklarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. U qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli bilan bog'liq hisoblanadi. Altman (1968) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan model va Moody's (1982) reyting tizimi kredit risklarini baholashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qildi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni tahlil qilish natijasida xulosaga kelish mumkinki, risk yo'qotishlar miqdori va yo'qotishlarning qiymat ifodasi sifatida baholanishini ko'rsatadi. Garchi boshqa manbalarda ushbu holat bevosita ta'kidlanmagan bo'lsa-da, riskning iqtisodiy mazmuni aynan ehtimoliy yo'qotishlar bilan bog'liq ekanligi namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida riskni baholashda umumiy ilmiy yondashuvlar va prinsiplardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Riskni talqin qilishda asosan ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvga ko'ra, risk korxona hamda tashkilot uchun kutilmagan natijaga olib kelishi mumkin bo'lgan tasodifiy hodisaning sodir bo'lish ehtimoli sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuvda esa risk ushbu hodisa natijasida yuzaga keladigan ehtimoliy yo'qotishlar miqdori va zarar darajasi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Miqdoriy jihatdan risk (R) ko'rsatkichi yo'qotishlarning ehtimoliy taqsimoti asosida aniqlanadi. Umuman olganda, riskning miqdori deganda ikki asosiy omil nazarda tutiladi. Birinchisi, yo'qotish sodir bo'lish ehtimoli, ikkinchisi esa ushbu yo'qotishning qiymat ifodasidir. Shuning uchun risk darajasi ehtimol va yo'qotish hajmining o'zaro bog'liqligi orqali ifodalanadi.

Ma'lum vaqt oralig'ida (Δt) tasodifiy hodisaning sodir bo'lish ehtimoli $P(\Delta t)$ riskning muhim miqdoriy ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich ayniqsa ekologik va texnogen risklarni, favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq xavflarni baholashda, shuningdek turli hodisalarning muayyan obyektga ta'sir darajasini taqqoslashda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, bir xil sharoitda faoliyat yurituvchi turli obyektlarning xavf darajasini solishtirish va ularning ishlash samaradorligini tahlil qilishda ham ushbu ko'rsatkich muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday risklar ayrim hollarda xavfli tabiiy va texnogen hodisalar, jumladan suv toshqinlari, zilzilalar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar orqali ham baholanadi. Bu holatda riskning natural ko'rsatkichlari inobatga olinadi. Masalan, jabrlanganlar va halok bo'lganlar soni hisoblanadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar esa ko'rilgan zararining puldagi qiymati orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy risklarni baholash zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarni boshqarish tizimining ajralmas qismiga aylangan. Globallashuv, moliya bozorlarining integratsiyalashuvi, kapital harakatining erkinlashuvi va texnologiyalar taraqqiyoti natijasida moliyaviy operatsiyalar murakkablashdi, bu esa risklarning turlari va manbalarini kengaytirdi. Ayniqsa, aksionerlik jamiyatlari uchun risklarni to'g'ri baholash va boshqarish moliyaviy barqarorlik, investorlar ishonchi va bozor qiymatini saqlab qolish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda moliyaviy risklarni baholash muammosi keng qamrovli tadqiq etilgan bo'lib, riskni o'lchash metodlari, risklarni identifikatsiya qilish, risklarni boshqarish strategiyalari, korporativ boshqaruv va normativ muhit ta'siri kabi bir nechta yo'nalishlarda rivojlangan.

Moliyaviy risk tushunchasi, odatda, tashkilotning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noaniqliklar bilan bog'lanadi. Bozor riski, kredit riski, likvidlik riski va operatsion risk eng ko'p o'rganilgan risk turlaridir. Bozor riski aktivlar narxi, valyuta kurslari va foiz stavkalari tebranishlari bilan bog'liq bo'lib, uning nazariy asoslari Black va Scholes (1973) hamda Merton (1974) ishlarida yoritilgan. Ularning opsion narxlash modellari bozor risklarini stoxastik jarayon sifatida tahlil qilish imkonini berdi va moliyaviy aktivlar qiymatining dinamikasini baholashda yangi bosqichni boshlab berdi. Kredit riski esa qarzдорning majburiyatlarini bajara olmaslik ehtimoli bilan bog'liq bo'lib, Altman (1968) tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli va reyting yondashuvlari kredit riskini prognozlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Likvidlik riski tashkilotning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmaslik xavfi bilan ifodalansa, operatsion risk ichki jarayonlar, inson omili va texnologiya bilan bog'liq nosozliklar natijasida yuzaga keladi.

Moliyaviy risklarni baholash sohasida eng keng tarqalgan yondashuvlardan biri riskni miqdoriy o'lchash hisoblanadi. Bu yo'nalishda risk ostidagi qiymat (VaR) modeli markaziy o'rin egallaydi. Jorion (1997) VaR ni moliyaviy institutlar amaliyotida keng qo'llaniladigan risk o'lchovi sifatida tizimlashtirib, uning hisoblash uslublari



va amaliyotdagi qo'llanilishini yoritdi. VaR ma'lum ishonch darajasida belgilangan vaqt oralig'ida kutilgan eng katta ehtimoliy yo'qotishni ifodalaydi. Biroq ilmiy adabiyotlarda VaRning cheklovlari ham muhokama qilingan. Dowd (2005) uning ekstremal yo'qotishlarni to'liq aks ettirmasligi va taqsimot farazlariga yuqori sezgiriligini ta'kidlaydi. Shu sababli kutilayotgan shartli yo'qotish (ES) va shartli risk ostidagi qiymat (CVaR) kabi alternativ risk o'lchovlari ishlab chiqildi. Artzner va hammualliflar (1999) risk o'lchovlarining mantiqiy va izchil tamoyillarini ilmiy asoslab, ESni mantiqiy va izchil risk o'lchovi sifatida taklif etdilar. Acerbi va Tasche (2002) kutilayotgan shartli yo'qotishni hisoblash va amaliyotga tatbiq etish metodlarini rivojlantirdilar. Kutilayotgan shartli yo'qotish (ES) risklarni yaxshiroq qamrab olishi bilan ajralib turadi va moliyaviy inqiroz sharoitida real xavf darajasini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Miqdoriy metodlar qatoriga Monte-Karlo simulyatsiyasi, ssenariy tahlili va stress-testlash kabi usullar ham kiradi. Stress-testlash, ayniqsa keskin makroiqtisodiy shoklar sharoitida tashkilotning barqarorligini baholash imkonini beradi. Bunday yondashuvlar riskni faqat statistik o'rtacha ko'rsatkichlar orqali emas, balki ekstremal holatlardagi ehtimoliy yo'qotishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga xizmat qiladi.

Riskni baholashda faqat miqdoriy hisob-kitoblar yetarli emas. Ilmiy tadqiqotlar risklarni identifikatsiya qilish va oshkor qilish jarayonini samarali boshqarishning asosi sifatida ko'radi. Bazel qo'mitasi (BCBS) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar risklarni sinflarga ajratish va ular bo'yicha axborot oshkor qilishni tartibga solish orqali moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Garchi mazkur standartlar asosan bank sektoriga taalluqli bo'lsa-da, risklarni tasniflash va axborot shaffofligini ta'minlash yondashuvlari aksionerlik jamiyatlari uchun ham dolzarbdur. Gordy (2003) kredit riskini portfel darajasida baholashda korrelyatsiya va sistemali omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bluhm va hammualliflar (2016) esa riskni kompleks baholashda ma'lumot sifati va model risklarining ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Risklarni boshqarish strategiyalari bo'yicha adabiyotlar diversifikatsiya va xedjirlashning muhimligini asoslaydi. Markowitz (1952) zamonaviy portfel nazariyasi orqali diversifikatsiya riskni kamaytirishning fundamental vositasi ekanligini ko'rsatgan. Linsmeyer va Pearson (1996) derivativlar orqali xedjirlashning hisobot va boshqaruv nuqtayi nazaridan ahamiyatini yoritgan. Sironi (2007) va Crouhy va hammualliflar (2006) risk-menejmentni tashkilotning strategik qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuvga ko'ra, riskni baholash natijalari investitsiya qarorlari, kapital tuzilishi va budjetlashtirish jarayonlarida inobatga olinishi lozim.

So'nggi yillarda texnologiyalar riskni baholash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, mashinali o'qitish va katta ma'lumotlar tahlili riskni prognozlash, firibgarlikni aniqlash va anomalialarni topishda qo'llanilmoqda. Tsay (2018) moliyaviy vaqt qatorlarini tahlil qilish va volatillikni prognozlashda algoritmardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatgan. Liu va hammualliflar (2020) sun'iy intellekt vositalarining riskni erta aniqlash va real-time monitoringdagi rolini asoslagan. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan riskni baholash tizimlari ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va qaror qabul qilishni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Normativ-huquqiy muhit ham riskni baholash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Eisenbeis va Kaufman (2007), Santos va Kolschen (2014) tadqiqotlarida normativ talablar riskni oshkor qilish va kapital yetarililigini ta'minlash orqali tizimli xavfni kamaytirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Regulyator talablar axborot shaffofligini kuchaytirish va korporativ intizomni ta'minlash orqali riskni baholash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aksionerlik jamiyatlari kontekstida korporativ boshqaruv alohida ahamiyatga ega. Shleifer va Vishny (1997) korporativ boshqaruvni agentlik muammosi nuqtayi nazaridan tahlil qilib, investor huquqlari va boshqaruv tizimi risk darajasiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. La Porta va hammualliflar (1998) huquqiy muhit va investor himoyasining kompaniya qarorlariga ta'sirini empirik jihatdan asoslab bergan. Korporativ boshqaruvning samarali tizimi riskni oshkor qilish, ichki nazoratni kuchaytirish va shaffoflikni ta'minlash orqali riskni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy risklarni baholash sohasidagi adabiyotlar riskni o'lchashning miqdoriy modellari, risklarni identifikatsiya qilish va boshqarish strategiyalari, texnologiya va normativ muhit ta'siri hamda korporativ boshqaruv omillarini qamrab oladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari moliyaviy risklarni kompleks yondashuv asosida baholash zarurligini ko'rsatadi. Aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni baholash mexanizmini takomillashtirishda miqdoriy modellar, institutsional mexanizmlar, texnologiyalar va normativ talablarni integratsiyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish uchun asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni baholash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, kompleks, tizimli va institutsional yondashuv asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va qiyosiy tahlil usullari qo'llaniladi. Metodologik jihatdan ish quyidagi prinsiplarga asoslanadi. Xususan, tizimlilik tamoyili, kogerent risk o'lchovi tamoyili, institutsional va korporativ boshqaruv yondashuvi, miqdoriy va sifat tahlilini uyg'unlashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy risklarni baholash va boshqarish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bozor konyunkturasining o'zgaruvchanligi, moliyaviy resurslar qiymatining tebranishi, kapital strukturasi o'zgarishlar va tashqi makroiqtisodiy omillar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risk va daromad o'rtasidagi optimal muvozanatni shakllantirish hamda uzoq muddatli strategik barqarorlikka erishish moliyaviy risklarni ilmiy asosda baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Moliyaviy risklarni baholashda rentabellik ko'rsatkichlari, kapital strukturasi, likvidlik darajasi va bankrotlik xavfi indikatorlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, o'z kapitali rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) kompaniya faoliyati samaradorligini ifodalasa, qarz va o'z kapitali nisbati (Debt-to-Equity) moliyaviy leverej darajasini ko'rsatadi. Joriy likvidlik koeffitsiyenti qisqa muddatli to'lov qobiliyatini baholash imkonini bersa, Altman moliyaviy barqarorlik indeksi kompaniyaning bankrotlik xavfini kompleks ravishda aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish kompaniya moliyaviy holatini har tomonlama baholash imkonini beradi.

"Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatining 2018–2022-yillar davomidagi moliyaviy faoliyati tahlil qilinib, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi asosida risk profili va barqarorlik darajasi baholanadi. Tahlil natijalari kompaniya moliyaviy risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Bu esa aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni baholash mexanizmini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. "Qizilqumsement" AJni asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi (2018–2022)¹

Yil	O'z kapitali rentabelligi ROE (%)	Aktivlar rentabelligi ROA (%)	Qarz va o'z kapitali nisbati (Debt-to-Equity)	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Altman moliyaviy barqarorlik indeksi (Z-ko'rsatkich)
2018	7.2	3.6	0.74	11.9	2.53
2019	38.0	21.2	0.62	14.7	4.39
2020	26.3	15.8	2.50	4.42	1.98
2021	94.7	27.0	2.51	4.95	3.59
2022	30.3	8.6	2.53	10.5	2.38

2018–2022-yillar davomida "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati moliyaviy faoliyati tahlili kompaniyaning kapital strukturasi, rentabellik darajasi, likvidlik holati va umumiy moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarida muayyan dinamik o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur tahlil moliyaviy risklarni baholash mexanizmini takomillashtirish nuqtayi nazaridan amalga oshirildi va asosiy e'tibor o'z kapitali rentabelligi (ROE), aktivlar rentabelligi (ROA), qarz va o'z kapitali nisbati (Debt-to-Equity), joriy likvidlik koeffitsiyenti (Current Ratio) hamda Altman moliyaviy barqarorlik indeksi (Z-score) ko'rsatkichlariga qaratildi. Ushbu ko'rsatkichlar kompaniya moliyaviy barqarorligi va risk profilini kompleks baholash imkonini beruvchi muhim indikatorlar hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-yilda kompaniya nisbatan barqaror, lekin past rentabellik darajasida faoliyat yuritgan. O'z kapitali rentabelligi 7,2 foizni, aktivlar rentabelligi esa 3,6 foizni tashkil etgan. Bu kompaniya aktiv va kapital resurslaridan o'rtacha darajada foydalanganini anglatadi. Mazkur davrda qarz va o'z kapitali nisbati 0,74 darajada bo'lib, moliyaviy leverej past hisoblangan, joriy likvidlik koeffitsiyenti esa 11,9 ni tashkil etgani kompaniyaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Altman indeksi 2,53 darajada qayd etilgan bo'lib, kompaniya "kulrang zona"da bo'lgan, ammo bankrotlik xavfi yuqori emasligi aniqlangan.

2019-yilda kompaniya moliyaviy natijalarining sezilarli yaxshilanishi kuzatildi. ROE 38 foizga, ROA 21,2 foizga yetgan, bu aktiv va kapital samaradorligining oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qarz yuki 0,62 darajaga tushgan, bu kapital strukturasi muvozanatli va barqaror bo'lganini anglatadi. Altman indeksi 4,39 darajaga yetgani kompaniya xavfsiz zonaga o'tganini tasdiqlaydi. Ushbu yil kompaniya moliyaviy barqarorlik va yuqori foydalilik bosqichiga kirgan.

2020-yildan boshlab moliyaviy ko'rsatkichlarda keskin o'zgarish kuzatildi. Qarz va o'z kapitali nisbati 2,50 darajagacha oshgani kompaniya qarz mablag'lariga yuqori darajada tayanganini ko'rsatadi. Leverejning oshishi natijasida ROE 26,3 foiz va ROA 15,8 foiz darajada saqlangan bo'lsa-da, moliyaviy risk darajasi kuchaygan. Altman indeksi 1,98 darajaga tushgan bo'lib, kompaniya "kulrang zona"ga yaqinlashgan. Bu holat moliyaviy

1 "Qizilqumsement" AJni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkinligini va risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2021-yilda kompaniya yuqori rentabellik bosqichiga kirgan. ROE 94,7 foizgacha oshgan, ROA esa 27 foizni tashkil etgan. Bu holat moliyaviy leverej ta'sirida kapital samaradorligining keskin oshganini ko'rsatadi. Biroq qarz yuki yuqori darajada saqlangan (2,51), bu esa kompaniyaning risk profili yuqori ekanligini anglatadi. Altman indeksi 3,59 ga yetgan va kompaniya yana xavfsiz zonaga qaytgan. Shu bilan birga, ROE volatilligining yuqori darajada bo'lishi (standart og'ish 0,295) kapital samaradorligi barqaror emasligini va risk yuqori ekanligini ko'rsatadi.

2022-yilda rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilgan. ROE 30,3 foizga, ROA 8,6 foizga tushgan. Qarz yuki esa 2,53 darajada saqlanib qolgan. Altman indeksi 2,38 bo'lib, kompaniya qayta "kulrang zona"ga yaqinlashgan. Bu holat kompaniya moliyaviy barqarorligida muayyan noaniqlik mavjudligini va risk profilining o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Volatillik tahlili natijalariga ko'ra, ROE standart og'ishi 0,295 ni, ROA esa 0,084 ni tashkil etgan. Bu kapital rentabelligi aktivlar rentabelligiga nisbatan yuqori o'zgaruvchanlikka ega ekanligini va leverej ta'siri natijasida risk darajasi kuchayganini tasdiqlaydi. Kompleks tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019–2021-yillarda kompaniya yuqori foydalilikka erishgan bo'lsa-da, 2020-yildan boshlab kapital strukturasi o'zgarishlar moliyaviy risk darajasini oshirgan. Likvidlik ko'rsatkichlarining yuqori darajada saqlanishi qisqa muddatli defolt xavfini pasaytirgan, biroq uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik qarz yukining yuqori darajasi tufayli ma'lum darajada xavf ostida qolgan.

Tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin: moliyaviy leverej oshishi ROE ni oshiradi, biroq bu holat risk darajasini ham kuchaytiradi; qarz yukining ortishi Altman indeksi pasayishi bilan kuzatilishi mumkin; yuqori likvidlik qisqa muddatli barqarorlikni ta'minlaydi; risklarni baholashda kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Shu bois kompaniya moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, maqsadli leverej darajasini belgilash, stress-testlash va risk limitlari tizimini joriy etish orqali uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi zarur. Umuman olganda, 2018–2022-yillar davomida "Qizilqumsement" AJ moliyaviy holati barqaror bo'lgan, ammo kapital strukturasi o'zgarishlar risk profilini kuchaytirgani sababli risklarni tizimli baholash va boshqarishni takomillashtirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida aksiyadorlik jamiyati moliyaviy risklarini boshqarish va baholash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, kompaniya kapital strukturasi bo'yicha maqsadli leverej intervalini belgilashi lozim. Qarz va o'z kapitali nisbati 1,0–1,5 oralig'ida saqlanishi moliyaviy barqarorlik va foydalilik o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlashi mumkin.

Ikkinchidan, moliyaviy risklarni baholashda kompleks indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. ROA, ROE, Debt-to-Equity va Altman indeksi asosida integratsiyalashgan korporativ risk indeksi ishlab chiqilishi kompaniya risk profilini aniq va tizimli baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, stress-testlash va ssenariy tahlili amaliyotini muntazam qo'llash zarur. Foiz stavkalari oshishi, bozor talabining kamayishi yoki makroiqtisodiy shoklar sharoitida moliyaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini modellashtirish kompaniyaning ehtimoliy risklarga tayyorligini oshiradi.

To'rtinchidan, risk limitlari va ichki nazorat tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Qarz yuki, foiz xarajatlari va likvidlik koeffitsiyentlari bo'yicha ichki cheklovlar belgilash moliyaviy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, korporativ boshqaruv shaffofligini oshirish va moliyaviy qarorlar qabul qilishda risk tahlilini majburiy element sifatida joriy etish kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Qizilqumsement" AJ misolida o'tkazilgan tahlil moliyaviy risklarni baholash va boshqarishni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish kompaniyaning strategik barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Acerbi, C., & Tasche, D. (2002). On the coherence of expected shortfall. *Journal of Banking & Finance*, 26(7), 1487–1503. [https://doi.org/10.1016/S0378-4266\(02\)00283-2](https://doi.org/10.1016/S0378-4266(02)00283-2)
2. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609. <https://doi.org/10.2307/2978933>
3. Artzner, P., Delbaen, F., Eber, J. M., & Heath, D. (1999). Coherent measures of risk. *Mathematical Finance*, 9(3), 203–228. <https://doi.org/10.1111/1467-9965.00068>
4. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). (2011). *Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems*. Bank for International Settlements.



5. Black, F., & Scholes, M. (1973). The pricing of options and corporate liabilities. *Journal of Political Economy*, 81(3), 637–654. <https://doi.org/10.1086/260062>
6. Bluhm, C., Overbeck, L., & Wagner, C. (2016). *Introduction to credit risk modeling* (2nd ed.). Chapman & Hall/CRC.
7. Crouhy, M., Galai, D., & Mark, R. (2006). *The essentials of risk management*. McGraw-Hill.
8. Dowd, K. (2005). *Measuring market risk* (2nd ed.). John Wiley & Sons.
9. Eisenbeis, R. A., & Kaufman, G. G. (2007). Cross-border banking: Challenges for deposit insurance and financial stability in the European Union. *Journal of Financial Services Research*, 31(2–3), 147–162.
10. Gordy, M. B. (2003). A risk-factor model foundation for ratings-based bank capital rules. *Journal of Financial Intermediation*, 12(3), 199–232. [https://doi.org/10.1016/S1042-9573\(03\)00040-8](https://doi.org/10.1016/S1042-9573(03)00040-8)
11. Jorion, P. (1997). *Value at risk: The new benchmark for controlling market risk*. McGraw-Hill.
12. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. (1998). Law and finance. *Journal of Political Economy*, 106(6), 1113–1155. <https://doi.org/10.1086/250042>
13. Linsmeier, T. J., & Pearson, N. D. (1996). *Risk measurement: An introduction to value at risk*. Working paper, University of Illinois.
14. Liu, Y., Chen, Y., & Zhang, J. (2020). Artificial intelligence and financial risk management: A review. *Finance Research Letters*, 36, 101–113.
15. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. *The Journal of Finance*, 7(1), 77–91. <https://doi.org/10.2307/2975974>
16. Merton, R. C. (1974). On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates. *The Journal of Finance*, 29(2), 449–470. <https://doi.org/10.2307/2978814>
17. Moody's Investors Service. (1982). *Corporate bond rating methodology*. Moody's.
18. Santos, J. A. C., & Kolschen, J. (2014). Regulation and systemic risk. *Journal of Financial Stability*, 15, 1–10.
19. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). A survey of corporate governance. *The Journal of Finance*, 52(2), 737–783. <https://doi.org/10.2307/2329497>
20. Sironi, A. (2007). *Risk management and shareholders' value in banking*. John Wiley & Sons.
21. Tsay, R. S. (2018). *Analysis of financial time series* (3rd ed.). Wiley.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100